

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 3



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-3>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддиқова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Nurmatova Zarifa Abdiraup qizi IKKI TILDA MULOQOT QILADIGAN BOLALARNING NUTQIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	5
2. O‘tamuradova Malohat ALISHER NAVOIY MEROSI NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARIDA.....	9
3. Петросьянц Эрнст Ашотович ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, МОТИВИРОВАННЫЕ ИМЕНАМИ СОБСТВЕННЫМИ ПОЛИТИКОВ В АНГЛОЯЗЫЧНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ.....	13
4. Jo‘raqulova Mushtariy Abdumalik qizi O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING YASALISH PARALLELIGI TADQIQI.....	23
5. Gulamova Malika Yakubovna O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA NUTQIY STRATEGIYALAR VA UNDAH USULLARI.....	27
6. Achilova Ozoda Farxodovna YAPON TILIDAGI MAQOLLARNI O‘ZBEK TILIDA MUQOBILLASHTIRISHDA TAYANILADIGAN OMILLAR.....	32
7. Nematillayevna Zubaydova PROBLEMS RELATED TO THE COMPARATIVE ANALYSIS OF LANGUAGES IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTICS.....	36
8. Насруллаева Тозагуль Сухробовна ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА В РОМАНЕ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «ФИНАНСИСТ».....	39
9. Mo‘minova Ma’suma G‘olib qizi SUV LEKSEMASI TAHLILIGA OID QIYOSIY-TARIXIY, SISTEM-STRUKTUR YO‘NALISHDAGI TADQIQOTLAR.....	43
10. Xamrayeva Zebiniso Xaydarovna MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALARNING IYERARXIK VA FUNKSIONAL TIZIM DOIRASIDAGI DERIVATSION VA SEMANTIK TAHLILI.....	53
11. Malika Solieva PHONOLOGY AND CULTURE: LINGUISTIC ASPECTS OF INTERACTION.....	58
12. Kodirova Shaxnoza Abduraxmonovna “MIMIKA, JEST VA BOSH HARAKATLARI KABI NOVERBAL MULOQOTNING QIYOSIY, LINGVOMADANIY TAHLILI.” (YAPONIYA, O‘ZBEKISTON VA BOSHQA MAMLAKATLAR MISOLIDA)...	61
13. Shamuradova Naima Muxtarovna DISCOURSIIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS EXPRESSING VERBAL POLITENESS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	66
14. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li STENDAL IJODIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING TA‘SIRI (“Qizil va qora” hamda “Parma monastiri” asarlari misolida).....	70
15. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTINI S.MOEM ISHLARIDA REPREZENTATSIYASI XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI..	74
16. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	79
17. Davlatova Hulkaroy Uktamovna TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA.....	84

18. Зулфанова Нигина Нуритдиновна СТРУКТУРА ФРЕЙМА «ТВОРЧЕСТВО» ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РОМАНА «А.МЁРДОК «THE BLACK PRINCE».....	93
19. Turakulova Sitora Fazlidinovna JANUBIY KOREYALIK YOZUVCHI KON JIYONNING “BIZNING BAXTLI DAMLARIMIZ” ROMANIDAGI OBRAZLAR RUHIYATI TASVIRI.....	98
20. Nurimbetova Dilnaz Yeshmuratovna "MILLIY TAOM" REALIYALARI VA ULARNING TARIXIY KONTEKSTI.....	104
21. Erkinova Ruxshona O‘tkirovna, Kurbonova Gulnoza Irkinovna YAPON VA JAHON ILMIY-FANTASTIKA (SF) ADABIYOTI QIYOSIY TAHLILI.....	109
22. Qayimova Maftuna Tursunovna OILAVIY MUHITDA QIZLARING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O‘ZBEKISTONDA).....	114
23. Хасанова Мавлюда Батыралиевна ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДИСКУРСА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	117
24. Iskandarova Aybibi Raximbayevna “QIYOMAT” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING XOSLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	125
25. Barno Abdusattarovna Mirsharipova PAK VANSO ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIGA DOIR.....	134
26. Muslimova Shahnoza Sunnatovna YOM SANSOP HIKOYALARIDA HAYOT VA O‘LIMNING YANGI IFODASI.....	139
27. Anorqulov Sanjar Iskandarovich TILSHUNOSLIKDA TOPONIMIK KONSEPT VA UNING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI.....	144
28. Karimboyeva Charos Ikrom qizi SIROJIDDIN SAYYID VA BAXTIYOR GENJEMUROD SHE’RIYATIDA TUSH OBRAZI.....	148
29. Mirvaliyeva Dildora Anvarovna DAVLAT TILIDAGI AXBOROT USLUBI MATNLARINING ELEKTRON TA’MINOTI .HUJATCHILIKDA IMLO VA TINISH BELGILARI.....	153
30. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Abdullayeva Nasima Murodullayevna O‘ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSI UCHUN DIALEKTAL SUBKORPUSINI YARATISH MASALALARI.....	157
31. Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich ASPEKTUAL SEMANTIKANING KOGNITIV MAZMUNI.....	166
32. Shamaxmudova Aziza Furkatovna MILLIY XARAKTER VA XUSHMUOMALILIK: ISPAN TIL SOHIBLARI TAFAKKURIDA HURMAT TAMOIYILLARI.....	170
33. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTIV SINTAKSEMALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	176




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

O'tamuradova Malohat

Qoraqalpog'iston, Amudaryo tumani

ALISHER NAVOIY MEROSI NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARIDA <https://doi.org/10.5281/zenodo.18733956>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola Nurboy Jabborovning o'zbek adabiyotshunosligidagi ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan bo'lib, uning mumtoz va zamonaviy o'zbek adabiyotini chuqur o'rganishdagi o'rni, adabiyot nazariyasi, matnshunoslik va milliy ma'naviyat masalalariga qo'shgan hissiy yoritilgan. Muallifning Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan ilmiy yondashuvi, shaxs tarbiyasi, ustoz-shogird munosabatlari, vatanparvarlik mavzulari, shuningdek, "adab" va "adabiyot" tushunchalarining sharq-islom madaniyati doirasidagi ta'riflari tahlil qilinadi. Nurboy Jabborovning tadqiqotlari milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirishda, shuningdek, o'zbek adabiyotining xalqaro ilmiy maydondagi o'rnini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar. Nurboy Jabborov, o'zbek adabiyotshunosligi, Alisher Navoiy, tarbiya, vatanparvarlik, adab, adabiyot, sharq-islom madaniyati, mumtoz adabiyot, milliy ma'naviyat, ustoz-shogird munosabatlari.

Otamuratova Malohat

Republic of Karakalpakstan, Amudarya District

THE LEGACY OF ALISHER NAVOI IN THE RESEARCH OF NURBOY JABBOROV**ABSTRACT**

This article is dedicated to the scholarly activities of Nurboy Jabborov, one of the leading figures in Uzbek literary studies. It explores his contributions to the study of both classical and modern Uzbek literature, literary theory, textual analysis, and national spirituality. Particular attention is paid to his scientific interpretation of Alisher Navoi's legacy, especially regarding themes such as personal development, moral upbringing, mentor-disciple relationships, and patriotism. The article also analyzes the concepts of "adab" and "literature" within the framework of Eastern-Islamic culture. Jabborov's research plays a crucial role in the development of national culture and spirituality and contributes significantly to the recognition of Uzbek literature in the international academic arena.

Keywords. Nurboy Jabborov, Uzbek literary studies, Alisher Navoi, education, patriotism, adab, literature, Eastern-Islamic culture, classical literature, national spirituality, mentor-disciple relations.

Утамурадова Малохат

Республика Каракалпакстан, Амударьинский район

НАСЛЕДИЕ АЛИШЕРА НАВОИ В ИССЛЕДОВАНИЯХ НУРБОЙ ЖАББОРОВ

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена научной деятельности Нурбой Жабборов - одного из ведущих представителей узбекского литературоведения. Рассматриваются его исследования в области классической и современной узбекской литературы, литературной теории, текстологии и вопросов национальной духовности. Особое внимание уделено научному анализу наследия Алишера Навои, в частности вопросам нравственного воспитания, становления личности, отношений наставника и ученика, а также патриотизма. В статье также рассматриваются понятия «адаб» и «литература» в контексте восточно-исламской культуры. Исследования Н.Жабборов играют важную роль в развитии национальной культуры и духовности, а также способствуют признанию узбекской литературы на международной научной арене.

Ключевые слова: Нурбой Жабборов, узбекское литературоведение, Алишер Навои, воспитание, патриотизм, адаб, литература, восточно-исламская культура, классическая литература, национальный духовный мир, отношения наставник-ученик.

Nurboy Jabborov o'zbek adabiyotshunosligining yetakchi olimlaridan biri sifatida mumtoz va zamonaviy adabiyot sohalarida keng qamrovli tadqiqotlar olib bormoqda. Olimning ilmiy izlanishlari nafaqat buyuk shoir va mutafakkirlar, jumladan Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Amiriy, Furqat va Muqimiy ijodiga bag'ishlangan, balki adabiyotshunoslik nazariyasi, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka oid masalalarni ham chuqur o'rganishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, olim jadidchilik davri adabiyoti va zamonaviy o'zbek she'riyati taraqqiyot tamoyillarini tahlil qilish orqali sohaning yangi nazariy konsepsiyalarini shakllantirishga katta hissa qo'shmoqda.

N.Jabborovning ilmiy merosi nihoyatda keng qamrovga ega bo'lib ular orasida o'zbek mumtoz adabiyotining tarixiy ildizlari, uning bugungi kundagi ahamiyati va milliy ma'naviyatga ta'siri alohida o'rin tutadi. N.Jabborovning tadqiqotlarida adabiyotning nafaqat san'at, balki milliy ong va ma'naviyat shakllanishidagi o'rni ham alohida ta'kidlanadi. U mumtoz adabiyot namoyandalari ijodini bugungi kun nuqtaiy nazaridan tahlil qilib, ularning adabiy-estetik qadriyatlarini zamonaviy talqin bilan boyitmoqda.

Nurboy Jabborovning "Maoniy ahlining sohibqironi" nomli monografiyasi Navoiy dahosini anglashimizda bebaho manba bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, kitobning "Komil shaxsiyat va ijodiy salohiyat uyg'unligi" nomli bobida Alisher Navoiyning buyuk shoir va davlat arbobi sifatidagi shaxsiy fazilatlarini yangi ilmiy-tahliliy qirralar bilan yoritilgan shu bilan birga Navoiyning irfoniy tafakkuri, adabiy va estetik qarashlari chuqur tahlil qilingan.

Kitobda nafaqat Navoiy siymosiga doir balki adabiyot, islom dini va sharqona axloqiy qarashlar bilan bog'liq tushunchalarga ham ilmiy-diniy manbalarga tayanib keng ta'rif berilgan. Xususan, muallif "adab" (adab) tushunchasining tarixi va mazmunini sharq-islom madaniyati doirasida batafsil yoritib bergan. Olimning fikricha, "adab" so'zi dastlab tor ma'noda adabiyot ilmi, ya'ni lug'at, sarf, nahv, ma'no, bayon kabi fanlarni anglatgan, ammo keng ma'noda bu so'z hayotda me'yorni saqlash, yaxshi xulq, ilm, tarbiya kabi fazilatlarini ham o'z ichiga oladi. Bu fikr Sharq falsafasida insonning ma'naviy kamoloti va jamiyatda barqarorlik uchun zarur bo'lgan asosiy tamoyillarni aks ettiradi.

Muallif "adab"ni ikki turga ajratadi: asliy (tug'ma, tabiatdagi) va kasb etilgan (o'rganilgan, o'zlashtirilgan) adab. Bu taqsimot insonning ma'naviy tarbiyasi va bilim olish jarayonidagi ikki jihatni ko'rsatadi. Asliy adab insonning tabiatidagi fazilatlar bo'lsa, kasb etilgan adab uning ta'lim-tarbiyasi orqali rivojlanadigan jihatidir.

Islom olimlari nazarida "adab" nafaqat yaxshi xulq, balki sunnat sifatida ham qaraladi, ya'ni insonning gunoh va xatolardan saqlanish, Alloh taoloning buyruqlariga rioya qilishidir. N.Jabborov Hazrat Alisher Navoiyning "adab" tushunchasiga bo'lgan yondashuvini keltirar ekan: "Hazrat Alisher Navoiy fikricha, adab kichiklarning saodatga erishmog'iga va ulug'larning kamolotda yanada yuksalmog'iga bois bo'ladi. Ulug' mutafakkir adabni quyidagicha ta'riflaydi:

Elga sharaf bo'lmadi johu nasab,
Lek sharaf keldi hayou adab.

Ya'ni odamzodning sharaf topishi mansab-martaba, boylik yoki nasab orqali amalga oshmaydi. Insonni faqat hayo va adab ulug'laydi". Navoiy qarashlarining asosida, odamzodning haqiqiy sharafi – bu uning aqli, adabi va hayosidir, mansab va boylik emas degan g'oya yotadi.

Shuningdek, kitobning ushbu bobida “adabiyot” so‘zining kelib chiqishi va uning keng hamda tor ma’nolari, badiiy adabiyotning og‘zaki va yozma shakllari ham tahlil qilingan. Sharq-islom madaniyatida badiiy adabiyotning nazm va nasr ko‘rinishlari orasida nazmning ustunligi qayd etilgan. Ayniqsa, Navoiyning “Sab‘ai Sayyor” dostonida nazm nasrdan afzalroq ekanligi ta’kidlanib, uning quyidagi misralari misol tariqasida keltiriladi:

Har kishi qilmoq istasa ma'lum

Biri mansur erur, biri manzum.

Nasru nazmi angaki mudrakdur,

Nazmning poyasi biyikrakdur...

Umuman, muallif “adab” va “adabiyot” tushunchalarining tarixiy-axloqiy ildizlarini, Sharq-islom madaniyatida ma’naviy va badiiy jihatlarini yoritib, Alisher Navoiyning bu boradagi qarashlari orqali ularni yanada boyitadi.

Alisher Navoiy ijodining sharq islom adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati haqidagi fikrlar, uning badiiy ijodidagi ijtimoiy-ma’rifiy va estetik omillarni aniqlab beradi. Ushbu omillar shoirning ijodiy kamolot darajasiga erishishida asosiy zamin bo‘lgani ta’kidlanadi. N.Jabborov quyidagi ijtimoiy-ma’rifiy va badiiy-estetik omillar asos-zamin bo‘lganligini alohida e’tirof etadi: “1. Qur’on va Sunnatni mukammal o‘rganib, butun hayoti davomida islom shariatining bu ikki mo‘tabar manbasiga og‘ishmay amal qilgani. 2. Buyuk islom mutafakkirlari, tasavvuf allomalari asarlarini o‘rgangani hamda ulardagi g‘oyalarni muttasil rivojlantirib va boyitib, asarlarida yuksak darajada badiiy talqin eta bilgani. 3. O‘zi mansub turkiy xalqning, o‘zbekning tarixini mukammal bilgani, butun ijodiy-ilmiy salohiyatini millatning oru nomusi, shonu sharafini himoya qilish, yuksaltirish yo‘liga safarbar eta olgani”. Ushbu tamoyillarga tayanib Navoiy ijodiy konsepsiyasi haqida xulosa chiqaradigan bo‘lsak quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin:

Birinchidan, Qur’on va Sunnatni mukammal o‘rganish va ularga sodiq qolish Navoiyning ijodiy va ma’naviy rivoji uchun asosiy poydevor hisoblanadi. Islom shiari va uning manbalari bo‘lgan Qur’on va Sunnatga rioya qilish Navoiyning faoliyatida uzluksiz axloqiy va diniy me’yorlarning saqlanishiga xizmat qilgan. Bu jihat shoirning ijodida diniy mafkura va axloqiy g‘oyalarning mukammal aks etishiga yo‘l ochgan.

Ikkinchidan, Islom mutafakkirlari va tasavvuf allomalarining asarlarini o‘rganish va ularni badiiy talqin etishda Navoiy faqat diniy ilmlarga emas, balki tasavvuf va islom falsafasiga ham chuqur qiziqish bildirgan. Ushbu ma’naviy maktabning g‘oyalarini o‘z asarlarida badiiy usulda talqin etish uning ijodiy o‘ziga xosligidan biri bo‘lib, bu uning asarlarida nafaqat diniy, balki estetik va falsafiy ma’nolarni ham boyitgan.

Uchinchidan, Navoiy o‘z xalqining tarixini va madaniyatini yaxshi bilishi va shu asosda o‘z ijodini milliy g‘urur va sharafni ko‘tarishga bag‘ishlashi uning ijodiy-ilmiy salohiyatini yangi bosqichga ko‘targan. Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, shoir ijodida milliylik va islom ma’rifati bir-biri bilan uyg‘unlashgan. Xondamirning ta’kidiga ko‘ra, Navoiy shariatning arkonlariga qat’iy rioya qilgan va uning g‘azallarida e’tiqod (tavhid) bilan amal (shariat) uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu Navoiy ijodida diniy va dunyoviy hayotning bir-biri bilan uyg‘unligini, diniy ruhiyat va huquqiy me’yorlar asosida yashash zarurligini ko‘rsatadi.

Navoiyning ijtimoiy-ma’rifiy va estetik jihatdan ijodiy kamoloti ushbu uchta asosiy omil bilan bog‘liq bo‘lib, ular shoirning ijodiga boy ma’naviy va madaniy mazmun kiritgan. Bu omillar uning ijodiy merosini sharq islom adabiyotida yuqori o‘ringa qo‘yishga imkon beradi.

Kitobning “Hayot falsafasi talqini” bobida Alisher Navoiy ijodidagi tarbiya va kamolot masalasi chuqur o‘rganilgan. Muallifning fikricha, shaxs kamolotida tarbiyaning o‘rni beqiyosdir. Bu tushuncha qadimiy Sharq falsafasiga asoslanib, hayot-mamot masalasi sifatida ko‘rilgan. N.Jabborov tarbiyaning shaxs kamoloti, jamiyat ravnaqi va yurt istiqbolidagi o‘rni haqida Navoiyning asarlaridagi o‘rganilgan betakror badiiy obrazlar orqali ta’kidlaydi. “Mana, buyuk shoir tarbiyaning ahamiyatini qanday vaf etadi:

Qatraga chun tarbiyat etti sadaf,

El boshiga chiqqucha topti sharaf.

Xalqimizda “Sadafsiz dur bo‘lmas, tikansiz – gul”, degan naql bor. Ushbu baytda qatraning gavharga aylanishi va boshga qadalish darajasiga yetishi sadafning tarbiyasi sababli ekani betakror poetik ifodasini topgan. Sadaf – ustoz, qatra esa – shogird timsoli. Sadafning tarbiyasisiz qatra hech qachon gavharga aylanmaydi. Ya’ni ustoz ta’limini olmagan shogird kamolga yetmo‘g‘i mahol”.

Muallif “sadamf” va “qatra” obrazlari orqali ustoz-shogird munosabatlarini tasvirlab, shaxs tarbiyasidagi ustozning o‘rni muhimligini ko‘rsatadi. “Sadaf” ustoz, “qatra” shogird timsoli bo‘lib, shogird tarbiyasisiz kamolga yetolmasligi bayon etiladi. Bu o‘rinda tarbiyaning shaxs kamoloti uchun zarur omil ekanligi ilmiy asosda dalillanadi.

N.Jabborov Vatandarparvarlik masalasiga ham alohida e’tibor qaratadi. U Navoiyning Vatan sevgisini imon bilan bog‘lab, “Vatan hubbi imon nishonidir” degan fikrini keltiradi. Bu esa Vatan sevgisini inson qalbining eng muhim va chin dildan qabul qilinadigan fazilati sifatida ko‘rsatadi. N.Jabborov Vatanni himoya qilishni har bir insonning burchi deb biladi, bu g‘oya “Saddi Iskandariy” dostonidagi she‘rlar orqali ifodalanadi.

Vatan tarkini bir nafas aylama,

Yana ranji g‘urbat havas aylama.

“Vatandan ayri tushmoq – ulkan fojia. Vatanni tark etmoq o‘zini mashaqqatlar girdobiga tashlamoq bilan barobardir. Buni Hazrat Navoiy “ranji g‘urbatni havas aylash”, deya ifoda etadi. Tarix shohid, ne-ne taqdirlar guvohlik beradi: inson Vatandan yiroqda hech qachon baxtiyor bo‘la olmaydi. “Hayratu-l-abror”da shoir ayni shu mohiyatni “G‘urbat aro holi yomon din yomon, Harne yo‘q andin yomon, andin yomon”, deya talqin etgani bejiz emas”.

“Ranjig‘ur‘batni havas aylash” iborasi bilan Navoiyning Vatan ajratgan shaxslarning qanday qiyinchiliklarga duch kelishini nazarda tutgani ko‘rsatiladi. Bu esa Navoiyning vatanparvarlik tushunchasining chuqur falsafiy mazmunini ochib beradi.

Nurboy Jabborovning tahlili shuni ko‘rsatadiki, Alisher Navoiy ijodida tarbiya va shaxs kamoloti markaziy o‘rin tutadi. Tarbiya insonning imkoniyatlarini ochib beruvchi, jamiyat va davlat rivojiga hissa qo‘shuvchi asosiy omildir. Shaxs tarbiyasida ustozning roli beqiyos ahamiyatga ega bo‘lib, bu aloqalar Navoiyning badiiy obrazlari orqali yorqin ifodalangan.

Bundan tashqari, vatanparvarlik Navoiy ijodida iymon bilan bog‘liq, inson qalbining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Vatanni himoya qilish, unga sodiq bo‘lish har bir insonning burchi deb qaraladi. Navoiyning bu masalalardagi falsafiy qarashlari bugungi kunda ham dolzarblik kasb etadi va insonni kamolot sari yetaklovchi muhim yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman, Navoiy ijodida tarbiya va vatanparvarlik masalalari shaxs kamoloti va jamiyat barqarorligi uchun asosiy omillar sifatida o‘rganiladi va ularning badiiy-estetik ifodasi betakroridir.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Nurboy Jabborovning ilmiy faoliyati o‘zbek adabiyotining tarixiy ildizlarini chuqur o‘rganish, uning nazariy asoslarini mustahkamlash va yangi ilmiy yondashuvlarni yaratish yo‘lida muhim qadamdir. Uning izlanishlari milliy madaniyat va ma’naviyatni rivojlantirishda, shuningdek, o‘zbek adabiyotini xalqaro ilmiy maydonda tanitishda beqiyos ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma’naviyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015. – 132 b.
2. Jabborov N. Zamon. Mezon. She‘riyat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2015. – 304 b.
3. Jabborov N. Ma’rifat nadir. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – 112 b.
4. Jabborov N. Cho‘lpon she‘riyatida milliy istiqloq orzusining badiiy talqini / Cho‘lpon ijodi va zamonaviy adabiy jarayon. – Toshkent: Mashhur-press, 2018. – B. 45-52.
5. Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. Toshkent: Adabiyot, 2021

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000